



Received: April 10, 2022
Accepted: June 20, 2022
Available online: June 25, 2022

Elbek Avezov

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
tayanch doktoranti
Toshkent, O'zbekiston

ADABIYOTSHUNOSLIKDA BADIY PSIXOLOGIZM – UMUMNAZARIY MUAMMO SIFATIDA

ANNOTATSIYA

Badiiy asar psixologizmi personajlar ichki dunyosi – ruhiy olamining badiiy tasviri, ularning fikr-qarashlari, istaklari, tajribalari va boshqa jihatlariga aloqador masalalardan. Biror-bir asar personajlarning ichki dunyosi tasviridan tashqarida emas. Psixologik tasvir esa juda murakkab, nozik va chuqur idrokni talab etadi va u ichki holatning umumiy, sxematik chizmasi bilan cheklanmaydi, balki badiiy asarda psixologizmning vujudga kelishini taqozo qiladi. Portret, peyzaj tasvirining psixologik funksiyasi personajlar qalbini, ruhiy olamini, kechinmalari tabiatini aniqlashda ko'p jihatdan yordam beradi. O'quvchi ko'z o'ngida qahramonning mukammal gavdalani-shiga imkoniyat yaratadi. Ba'zan qahramon chekkan azob-uqubatlar, qo'rquv va iztiroblar tashqi portretida aks ettirilsa, ayrim hollarda tashqi eskizlardan tashqari qahramon ichki dunyosi, o'y-kechinmalarida hayotining mahzun va quvonchli damlari tasvirlanishi mumkin.

Adabiyotshunoslikda badiiy psixologizm badiiy obraz bilan bog'liq hodisa va u asosan, adabiy tur va janrlar kesimida farqlanadi. Shunday ekan, psixologizmdan foydalanish usullari epik turdagi janrlarda ham bir xil emas. Masalan, roman psixologik tahlil uchun imkoniyatlari cheksiz janr bo'lsa, hikoyada bunday bo'lmaydi. Hayotning muayyan qisminigina aks ettirishi mumkin bo'lgan hikoyada unda badiiy psixologizmdan foydalanish imkoniyati roman va drama nisbatan bir oz chegaralangan. Shu ma'noda qahramon ruhiyati tasvirida muallifdan yana ham ko'proq ishlash talab etadi.

Maqolada badiiy adabiyotda psixologizmning taraqqiyot bosqichlari va qo'llanilishi tahlil etilgan. Inson ruhiyati tasviri yaqinda paydo bo'lgan

Elbek Avezov

PhD Student, Uzbekistan State World
Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: elbekavezov040@gmail.com

LITERARY PSYCHOLOGY IN LITERATURE AS A GENERAL PROBLEM

ANNOTATION

In literature critical studies, psychologism in fiction, is understood not as a tool of the creation of heroes' characters in a certain work and the presence of psychological reliability in it, but it is the artistic representation of the inner world of characters – their thoughts, experiences, desires, etc. Any work cannot be written without the shortest and historical information about the inner world of the characters. Therefore, we can find a psychological image in every work of art. Psychologism can be considered only when the psychological image becomes the main method of knowing the depicted character, when it carries an important content load and reveals the features of the thematically large volume. As a result, the psychological image is very complex, subtle and deep, and is not limited to a general, schematic drawing of the internal state. It is then that psychological coating appears in the work of art. The psychological function of a portrait and landscape description helps in many ways to determine the inner character of the characters' feelings. A living hero is embodied before the eyes of the reader. Sometimes the sufferings, fears and troubles of a hero are reflected in the external portrait, and in some cases, in addition to the external sketches, the inner world of a hero, his/her thoughts, and the problems and joyful moments of his/her life can be depicted.

In literature critical studies, artistic psychologism is a phenomenon related to the artistic image, which differs mainly in terms of literary types and genres. Therefore, the use of psychologism has a different character in epic genres. If a novel is a genre with unlimited possibilities for psychological analysis, a story

tushuncha emas. Uning taraqqiyot bosqichlari antik davr adabiyotida boshlangan bo'lsa, rivojlanishi va mukammallikka erishishi Uyg'onish davriga to'g'ri keladi.

Inson ruhiy kechinmlarini badiiy tasvirlashning eng taraqqiy etgan nuqtasi, aniqrog'i uslubi – qahramonning ichki va tashqi portreti bo'lsa, bu borada asardagi dialog, ichki monolog va peyzajning ham roli katta. Muallif ushbu poetik uslublarning qo'llanilishiga oid masalalarga alohida e'tibor qaratgan.

Kalit so'zlar: ruhiyat, tasvir vositalari, monolog, peyzaj, fe'l-atvor, kechinma, tush, badiiy detal, emotsional harakat.

reflects a certain part of life, and the possibility of using artistic psychology in it is somewhat limited compared to a novel and drama. Therefore, the depiction of the psyche of a hero requires the author's certain skills to write a proper story.

The article deals with the stages of psychologism development and usage in fiction. Every author wants to revive the protagonist of his/her work to be correctly understood by a reader. This process is connected with the psyche of the protagonist. The author uses various poetic means to reveal the character's psyche. The depiction of the human psyche is not a recent concept. Its stages of development go back to the antic literature, its development and perfection dates back to the Renaissance. While the most advanced methods of artistic expression of a person's spiritual experiences are the inner and outer portraits of the protagonist, the dialogue, the inner monologue, and the landscape also play an important role. This article focuses on the usage of these poetic techniques.

Key words: psyche, media, monologue, landscape, approach, character, experience, dream, artistic detail, emotional movement.

KIRISH

“Ruhiyat” atamasi izoh va talqinlarga boy tushunchalardan. Adabiyotshunoslikda ham inson ruhiyati ta'siri haqida ko'p fikrlar o'rta tashlangan va bu mavzu bo'yicha bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Badiiy asarni yaratishning eng katta omillaridan biri – inson ruhiyatining badiiy tasviri masalasidir. Bu jarayon badiiy psixologizm deb yuritilib, muallif tasvirlagan qahramon xarakteri, o'y-kechinmalari, xatti-harakatlarida bevosita aks etadi. Badiiy adabiyotning eng nozik xususiyatlaridan hisoblangan badiiy asar qahramonining psixologizmi orqali siyosiy-ijtimoiy muhitning ma'naviy-ahloqiy muammolari ham ochib beriladi. Britaniyalik faylasuf Kollingvudning yozishicha, “badiiy asar his-tuyg'uni yaxshiroq tushunishga harakat qilish maqsadida musiqa, ranglar va boshqalarni so'z bilan ifodalanishidir” [Collingwood R., 1938; 5].

Adabiyotshunoslik lug'atida badiiy psixologizmga quyidagicha ta'rif berilgan: Badiiy psixologizm – “badiiy asarda to'laonli inson obrazini yaratishning muhim vositalaridan biri – personaj ruhiyatining ochib berilishi, xatti-harakatlari va gap-so'zlarining psixologik jihatdan asoslanishi, shu maqsadlarga xizmat qiluvchi usul va vositalarning jami” [Quronov D., Mamajonov Z., 2013; 48]. Psixologizmning terminologik ta'rifi bo'yicha turli qarashlar mavjud. Adabiyotshunos A.B. Esin: “Psixologizm, bu – badiiy shaxsning (adabiy qahramonning) o'ziga xos badiiy tasvir vositalaridan foydalangan holda his-tuyg'ulari, fikrlari, kechinmalarini batafsil va chuqur tasvirlashdir” degan bo'lsa, L.Ya. Ginzburg psixologizmni “ruhiy hayotni uning ziddiyatlari va tubidagi tadqiqi” deb e'tirof etadi [Alimuhamedov A., 1947; 115-137]. V.V. Kompaneets psixologizmga badiiy asarning poetik vositasi sifatida

emas, balki badiiy adabiyotning mulki, shu jumladan, muallif psixologiyasining aksi sifatida qaraydi. Ko‘rinib turibdiki, badiiy psixologizm rus adabiyotida ham aynan bahs va munozaraga boy bo‘lgan hodisa hisoblanadi [Sarimsoqov B., 1976; 106-114].

ASOSIY QISM

O‘zbek adabiyotshunosligida psixologizm muammosi bo‘yicha dastlabki ish o‘zbek hikoyalariga bag‘ishlangan adabiyotshunos olim A.Alimuxamedovning “Abdulla Qahhor hikoyalarida psixologik tasvir” deb nomlangan maqolasi bo‘ldi [Sarimsoqov B., 1976, 106-114]. XX asrning oltmishinchi yillariga kelib, bu boradagi tadqiqotlar ko‘paydi, lekin ularning barchasida psixologizm alohida muammo sifatida emas, balki asarlardagi xarakterlarning psixologik jihatdan tabiiyligi haqidagi qarashlarga bog‘lab o‘rganilgan. XX asrning yetmishinchi yillariga kelib, psixologizm bo‘yicha o‘zbek olimlari tomonidan muayyan ishlar amalga oshirildi. Bunga tadqiqotchilardan N.Shodievning “A.Qahhorning psixologik tahlil mahorati (“Sarob”, “Sinchalak” asarlari misolida)” (1973) hamda M.Abdurahmonovanning “Abdulla Qodiriy ijodida psixologik tahlil mahorati” (1977) mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyalari misol bo‘ladi. O‘sha yillari o‘zbek olimlaridan B.Sarimsoqovning ham ushbu mavzuga taalluqli maqolasi chop etildi [Sarimsoqov B., 1976, 106-114].

Inson psixologiyasining badiiy tasviri badiiy asarlarda o‘z aksini topadi. Muallif o‘z qahramonining o‘y-kechinmalari, his-tuyg‘ularini qahramon yaratishda bevosita ifodalaydi. Badiiy asar bilan kitobxonning o‘rtasidagi “muloqot” boshlangandan so‘ng, badiiy psixologizm mexanizmi vujudga keladi. Inson ongining tasviri mana shunday dialogik jarayonda namoyon bo‘ladi. Bu boradagi muhim hodisai badiiy adabiyot orqali namoyon bo‘ladi.

Professor Abdurauf Fitrat “Adabiyot – fikr, tuyg‘ularimizdag‘i to‘lqunlarni so‘zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to‘lqunlarni yaratmoqdir” – deb e‘tirof etadi [Fitrat A., 1995; 21-22]. Badiiy psixologizm, bu –muallif tomonidan o‘z qahramonlarining ichki dunyosini o‘quvchiga yetkazib berishdan iborat. Albatta, his-tuyg‘ularni yetkazish san‘atning boshqa turlariga ham xos jihatdir. Ammo adabiyot o‘zining obrazlilik tufayli insonning ruhiy holatini eng mayda detallarigacha tasvirlash qobiliyatiga ega. Chunki bu detallar yordamida insonning yashash tarzi, axloqi, o‘tmishi, armonlari va orzu-umidlari namoyon bo‘ladi.

Adabiy qahramonlar ruhiyatini ochish, ularning xohish-intilishlari va tutumlarining sabablarini tahlil etish orqali kitobxon ko‘ngliga yo‘l topish yozuvchilar badiiy mahoratini bildirishi shak-shubhasiz. Inson shaxsiyati jumbog‘ini yechishga urinish, hayot mohiyatini anglashga, shaxs ruhiyatini taftish va tahlil qilishga intilish – adabiyotning, xususan, roman janrining bosh vazifalaridandir [Matyoqubov S., 2006; 72-74]. Inson ruhiyatini ochib berish uchun yozuvchiga juda katta mas‘uliyat yuklanadi. Uning dunyoni idrok etishi, insonlar qalbini yorqin ifoda etishi mukammal asar yozishiga imkon beradi. Chunki o‘z davri bo‘ladimi, boshqa tarixiy davrmi – jamiyatning ruhiyatini kitobxonga yetkazib berish, o‘quvchi ongini voqea tavsilotlariga bog‘lab qo‘yib, ko‘z o‘ngida tasavvur qilishga erishish aynan o‘sha muallif zimmasiga yuklatiladi. Muallif fazilatlar va uning aytmoqchi bo‘lgan yuragidagi gaplari asar qahramonlarida, albatta, zuhurlanishi tabiiydir. Chunki badiiy asar va

unga singdirilgan fikrlar davrlar oshib ham barchaga asqotsa, oʻrnak boʻlsa, ana oʻsha asar va uning qahramoni haqiqiy qahramondir. Demak, asarning keng shuhrat topishi yozuvchining bu boradagi mahorati bilan bogʻliqdir. Yozuvchi oʻz navbatida oʻz qahramonining psixologi boʻlishi kerak. Rus olimi Yesin eʼtirof etganidek, “Psixolog boʻlish inson qalbini tushinish, uning yashirin sirlarini payqay bilish, demkdir. Lekin qaysi yozuvchi bu jihatdan bahramand boʻlmagan? Ayrim mashhur rus yozuvchilaridan Lermontov, Tolstoy, Dostoevskiy “psixolog yozuvchilar” deb atashimiz bejiz emas” [Yesin A.B., 1988; 4]. Haqiqatan ham shunday yozuvchilar borki, ularning asarlarini oʻqiganimizda butun vujudimiz bilan oʻsha asar qahramoniga aylanamiz. Qahramon bilan birga yashaymiz, aziyat cheksa yigʻlaymiz, quvonsa xursand boʻlamiz. Oʻzbek adabiyotining zabardast yozuvchilari – Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Pirimqul Qodirov, Said Ahmad, Oʻtkir Hoshimov kabilarning asarlari ana shunday asarlar sirasiga kiradi. Bunga sabab – ularning qahramonlar ruhiy kechinmalarini jonli tasvirlash mahoratidir.

Rus adabiyotshunosligida ruhiyat mavzusida birinchilardan boʻlib tadqiqot olib borgan N.G. Chernishevskiy psixologik tahlilning xilma-xil boʻlishi mumkinligini va bir muallif xarakter qirralarini ochib berishga urinsa, boshqasi – xarakter shakllanishiga jamiyat va turmush taʼsirini koʻrsatib beradi; uchinchi – xatti-harakatlarning his-tuygʻular bilan aloqadorligini; toʻrtinchi – ehtiroslar tahlili tasvirlashini organadi, – deydi [Chernishevskiy N.G., 1974]. Lekin olim yuqorida qayd etgan bu uch jihat bir muallifning aynan bir asarida ham namoyon boʻlishi mumkin. Muallif qahramonning tashqi koʻrinishi bilan birga ichki dunyosini ifoda etishi orqali kitobxon koʻz ongida tirik insonni gavdalanitiradi. “Inson – adabiyotning tasvir predmeti ekan, insonning ruhiyatisiz uni yaxlit, bir butun holatda toʻliq tasavvur qilish mumkin emas. Demak, har qanday badiiy asarda, u qachon va qaysi janr yoki metodda yaratilgan boʻlmasin, inson psixologiyasi u yoki bu tarzda aks etishi tabiiydir” – deya eʼtirof etadi adabiyotshunos olim H.Umurov [Umurov H., 1983; 7]. Tadqiqotchi N.Qobilovanning taʼrificha: “Badiiy psixologizm – inson ruhiyatini idrok etish, tahlil qilish natijasi oʻlaroq, badiiy asarda aks ettirilgan ruhiy holatlar tasviri; yozuvchi psixologik tahlillarining mahsulidir. Yozuvchi bevosita badiiy matnda psixologik tahlil qilmaydi, balki oʻz qahramonining ruhiy olamini, ruhiy holatlarini tasvirlaydi, aks ettiradi, “chizadi” [Qobilova N., 2020; 12]. Tadqiqotchi U.Koʻchimovning taʼbiricha, “Adabiyotda psixologizmning asosiy vazifasi – qahramonning botiniy olamini chuqur, atroflicha yoritish, badiiy asarning makoniy hamda zamoniy chegaralarini kengaytirish, syujet va kompozitsiyaga taʼsir koʻrsatish hamda ruhiyat tasvirining barcha usullariga xos gʻoyaviy-estetik imkoniyatlarni badiiy tasvirlashdan iborat” [Koʻchimov U., 2021; 16].

Inson ruhiyatini turli adabiy turlar orqali ochib berish imkoniyatlari mavjud. Lirikaning oʻz qoidasiga koʻra, inson ruhiy kechinmalari, maʼnaviy dunyosiga tashqaridan qaralmaydi. Unda qahramon oʻz his-tuygʻularini toʻgʻridan-toʻgʻri ifodalash imkoniyatiga ega boʻladi. Bu jarayon psixologik introspeksiya –mulohazali fikr deb yuritiladi. Shuningdek, lirik qahramon tasviri meditatsiya orqali ham yuzaga chiqadi. Lirik asar qahramonining psixologizmi tasviri bir tomondan ifodali va teran boʻlsa, ikkinchi tomondan cheklovlariga ega. Bu jihat dramalarga ham

tegishlidir. Chunki dramada qahramon ichki dunyosini aks ettirishning asosiy usuli – personajlarning nutqi, ya’ni monologidir.

Ko’rinib turibdiki, adabiyotning epik turi qahramon psixologiyasi tasvirining eng qulay va imkoniyatlarga boy janrlarga ega. Lekin epik turdagi bu imkoniyat har doim ham sodir bo’lavermaydi. Adabiyotda psixologizm vujudga kelishi uchun muhim omil, bu – jamiyat madaniyatining yetarli darajada yuqori rivojlanishidir va ushbu madaniyatda inson shaxsi qadrlanishi zarur [Yesin A.B., 1988; 176].

NATIJALAR VA MULOHAZALAR

Adabiyotshunoslikda qahramon psixologiyasining vujudga kelishidagi ikki asosiy shaklining ko’rsatib berilishi ko’p rus adabiyotshunoslariga xos. L.Ya. Ginzburg, I.V. Straxov, V.E. Xalizev, A.N. Andreev kabi adabiyotshunoslar qahramon ichki dunyosi bevosita va bilvosita shaklda ko’rsatiladi, deb e’tirof etadilar. I.V. Straxov qahramonning ichki dunyosini tasvirlashning bu ikki shaklini yanada mukammallashtirib, qahramonning ruhiy holatini tasvirlash orqali ichki nutqidan to’g’ridan-to’g’ri foydalanuvchi “ichki” hamda yuz ifodalari, xatti-harakatlari, atrof-muhit kabi tafsilotlarni o’z ichiga olgan “tashqi” shakllarga ajratadi [Straxov I.V., 1973; 57]. Bir xil psixologik tasvirni turli shaklda ifolash mumkin. “Men uning bu gaplaridan juda hafa bo’ldim”, – deyish mumkin. Bu simmetrik ifodalash shakli – “ichki” tasvir. Xuddi shu holatni tashqi belgilar bilan – ko’z yoshlar, chimirgan qoshlar, sukunat kabilar yordamida tasvirlash ham mumkin va bu “tashqi” ifoda shakli hisoblanadi.

A.N. Andreevning ta’kidlashicha, “ko’pincha, bu ikki turdagi psixologizm bir-birini to’ldirish tamoyiliga muvofiq birlashtiriladi: qahramonlar nafaqat o’ylashlari va gapirishlari, balki jimgina harakat qilishlari mumkin [Andreev A.N., 2003; 88]. A.P. Skaftimov psixologik tasvirni “hislar nomlanadi, lekin ko’rsatilmaydi” deb tushuntiradi [Skaftimov A.P., 1972; 175]. A.B. Yesin ushbu shaklni “umumlashtiruvchi shakl” deb nomlaydi [Yesin A.B., 1988; 176]. Badiiy asarda inson obrazi yaratilishida uning psixologiyasini ochib berish masalasi uzoq o’tmishga borib taqaladi. O’zbek olimlari garchi bu masalani nazariy jihatdan XX asrda talqin qilishgan bo’lishsa-da, o’zbek xalq eposlarida obrazlarning his- tuyg’ulari tasvirida turli psixologik usullardan foydalanilgan. “Epos syujeti xalqning ko’ngil mulkida pishib yetiladi. Tilga ko’chadi. Bu yerda hukmbardor – xalqning ruhi. “Alpomish” buning tasdig’i” [Turdimov Sh., 2012; 29].

O’zbek mumtoz adabiyotida Alisher Navoiy dostonlarida inson ruhiyatining qavat-qavat sirlari ochilgani, Sharqning buyuk shoiri tomonidan badiiy psixologizmning xilma-xil usul va vositalari qo’llangani ham haqiqat [Is’hoqov Y., 1983]. Bunga Navoiyning “Xamsa” dostonidagi barcha qahramonlari yorqin misol bo’la olishadi.

Antik davr Yevropa adabiyotida qahramon tuyg’ulari batafsil ifoda topgan asarlar mavjud bo’lib, ularda ba’zan qahramonning o’zi hissiyotlarini tahlil qilishga harakat qiladi. Yevripidning “Medeya” dostonida qahramon ruhiy kechinmalari tarqoq holda bo’lsa-da tasvirlangan. Psixologizmning rivojlanishi to’xtab qolmadi,

o'rta asr adabiyotida Dantening "Ilohiy komediyasi"da aks etsa, inson shaxs sifatida ulug'lana boshlangan Uyg'onish davri adabiyotida yanada kuchayib, Servantes va Bokachchoning jahonga mashhur bo'lgan "Don Kixot" hamda "Dekameron" asarlarida, Shekspir dramalarida inson ichki dunyosi tasviri yaqqol namoyon bo'la boshladi.

XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning boshlari G'arbiy Yevropada burjua jamiyatining asosiy xususiyatlari shakllanayotgan paytda psixologizmning o'rni birdan ortib, adabiyotning umumiy psixologiztasiya davri hisoblandi. Burjua jamiyatining qarama-qarshiliklari shaxs ongida aks etgan ichki dunyoning o'ta murakkab manzarasini yaratadi va insonni shiddatli g'oyaviy-axloqiy izlanishga undaydi. Bu paytga kelib, psixologizm jahonga mashhur sentimentalistlar – Shtern, Russo va Shiller asarlarida badiiy mukammallikka yertadi. Bu hodisani A.B. Yesin jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlar, shuningdek, shaxsning sentimentalistik va romantik madaniyat tizimida egallagan ulkan roli bilan bog'laydi [Yesin A.B., 1988; 176].

XX asr adabiyotida psixologizm tanqidiy va ijtimoiy realizm tizimida rivojlanish va takomillashishda davom etdi. Realizm xarakterning ichki rivojlanishini tabiiy va izchil jarayon deb hisoblaydi, shuning uchun uning individual bo'g'inlari – fikrlar, his-tuyg'ular va tajribalarning bog'liqligini tasvirlashga ehtiyoj tug'iladi. Bu davrda shaxsning qadr-qimmati, aqliy va axloqiy rivojlanishi jarayonlariga e'tibor ancha yuqori bo'ldi. XX asr G'arb adabiyotiyotining namoyandalari E.Xeminguey, U.Folkner, R.Oldington, A.Moravia asarlarida qahramon psixologizmi o'zining yorqin ifodasini topgan bo'lsa, rus adabiyotshunosligida M.Gorkiy, L.Leonov, A.Fadeev, M.Sholoxov, K.Fedin, K.Simonov asarlarida qahramon psixologiyasiga alohida munosabatni ko'rishimiz mumkin. Lekin ayrim yozuvchilar psixologizm ifodasiga boshqacha yondashib, psixologik obrazlarni juda murakkab tarzda bayon etishganini ham guvohi bo'lishimiz mumkin. A.B. Yesin G'arb san'atidagi bu jarayonni "psixologizmdan asossiz foydalanish natijasida inqirozga uchragan uslubiy xususiyat" deya qayd etadi [Yesin A.B., 1988; 62]. Uning fikricha, bu yo'nalishlar mualliflari (M.Prust, D.Djoys, N.Sarrot) qahramon psixologik hayotining batafsil tasvirlab, psixologik obrazga katta ahamiyat beradilar.

Psixologik tasvirning uchta asosiy shakli mavjud va ular o'z navbatida, ichki dunyo tasvirining barcha o'ziga xos usullarini mujassamlashtiradi. Ushbu shakllarning birinchisi – ichki nutq, xotira va tasavvur bayoni yordamida xarakterning ichki dunyosini "ichkaridan" namoyon bo'lishi usuli bo'lsa, ikkinchisi – bilvosita shakl bo'lib, inson tashqi qiyofasi, mimikasi, psixika namoyon bo'lishining "tashqi" tasvir shakli hisoblanadi [Straxov I.V., 1973; 4] (Ushbu ikki shakl rus psixologi I.V. Straxov tomonidan nazariy asoslangan). Uchinchi shakli – summativ ifodalovchi shakl (суммарно-обозначающая форма) va u xarakterning his-tuyg'ularini, fikrlarini nomlash usuli, ichki dunyoda sodir bo'ladigan jarayonlarning qisqacha tavsifi hisoblanadi [Skaftimov A.P., 2007; 535] (Ushbu shakl rus folklorshunos olimi A.P. Skaftimov tomonidan nazariy asoslangan).

Badiiy asarda qahramon psixologiyasining rivojlanishi ko'p asrlardan buyon mavjud bo'lib, har bir davrning turli adabiyotlarida qahramonning ichki dunyosini

aks ettirishning aniq tipologik xususiyatlaridan tashqari, badiiy psixologizmning tuzilishida aks ettirilgan xususiyatlarni ham hisobga olish kerak bo'ladi. Masalan, milliy adabiy an'analar: Fransiyada – analitik, Rossiyada – axloqiy-falsafiy, Angliyada – psixo-personalistik, Germaniyada – intellektual va mafkuraviy hisoblangan.

Adabiyotshunos H.Umurov ta'biricha: "Hozirga qadar o'zbek nasrida qahramon psixologiyasini ochishning uch xili yaqqol ko'zga tashlanadi. Bular: dinamik, analitik, sintetik prinsiplar..... Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanida xarakterning qirralarini tahlil etish yetakchi psixologik shakldir. Abdulla Qahhorning "Sarob" romanida qalb dialektikasi asosiy shakl hisoblansa, Oybekning "Qutlug' qon" romanida ijtimoiy munosabatlar va maishiy to'qnashuvlarning xarakterlarga ta'sirini tahlil qilish birinchi o'ringa chiqadi" [Umurov H., 2004; 59-67]. Ko'rinib turibdiki, qahramon ruhiyati sirlarining ochib berilishi yozuvchi mahoratiga, qanday tahlil va tadqiq qila olishiga bog'liq. Ayrim yozuvchilar ichki kechinmalarni so'zlar orqali ifoda etsa, boshqalari yuz mimikalarida yana boshqalar esa personajlar harakat-holati tasvirida ifoda etadi.

Qahramon psixologiyasi badiiy asarda turli poetik vositalar yordamida o'z aksini topadi. Adabiyotshunoslar tomonidan ruhiy tahlil poetik vositalarining o'ndan ortiq turlari qayd qilingan. Ularga portret, dialog, monolog, tush, peyzaj, badiiy detal, hissiy harakatalar (mimika va pantomimika), nutqiy xarakteristika (roviy), gallyutsinatsiya kabilarni kiritish mumkin. Ushbu vositalarning har biri badiiy asar qahramonlarining muayyan makon va zamonda ichki dunyosining yashirin qirralarini o'quvchiga tanishtirishda yozuvchiga qo'l keladi [Shermuhamedova S., 2020]. Bu vositalar orqali asar qahramonining tashqi va ichki dunyosi be'malol ochib berilishi mumkin.

Badiiy asarda qahramonni tasvirlash jarayonida uning ichki va tashqi portreti muhim ahamiyat kasb etadi. Tashqi portretda ham inson ichki ifodasi o'z aksini topadi, chunki qahramonning har bir harakati o'z o'ringa egaki, kitobxonning ko'z o'ngida qolishi, biron bir harakat bemavrud tasvirlanmasligi kerak. Portret bevosita asar g'oyasiga, qahramonlar xarakteriga mos tushishi kerak. Qahramon portreti matn davomida bir marta berilishi yoki mukammal tasvirlanishi mumkin. Portret poetikasining o'ziga xosligi muallifning uslubiga bog'liqdir. XIX asr – XX oxiriga kelib portret badiiy asarning holatini belgilovchi poetik vositaga aylandi.

Qahramon portretining paydo bo'lishi XVIII asrning birinchi o'n yilliklariga to'g'ri keladi. Qahramon qiyofasi tasvirini o'z ichiga olgan oddiy inson hayotining eskizlari adabiyotda juda tez ommalashdi, ammo bu holat hali tarjima qilingan adabiyotlar ta'sirida shakllangan edi, xolos. 1780-yildan 1830-yilgacha bo'lgan davr – personaj tasvirida portretning shakllanishi davri edi. Bu vaqtda "tashqi odam" shakllari "ichki odam" shakllari bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'la boshlaydi: adabiyotda psixologizm qanchalik rivojlangan bo'lsa, portret shakllari ham shunchalik o'sib bordi. XIX asrning ikkinchi yarmi esa epik janrlarning faol shakllanishi va hikoya janri tamoyillarining murakkablashishi bilan ahamiyatlidir. Buning natijasida portretning roli sezilarli darajada kengaydi. Endi portret detallari syujetda katta ahamiyat kasb etib, roviyning ifoda ko'lamiga ham anchagina ta'sir

ko'rsata boshladi. XIX–XX asrlar oxiriga kelib, muayyan tasvirdan chetlanishdan iborat tendensiyalar vujudga keldi – voqelik va qahramonning tashqi hamda ichki xususiyatlari o'rtasidagi aloqadorlik majburiy ravishda qo'llanila boshladi. Insonning yuzini tasvirlashga bo'lgan qiziqish asta-sekin alohida tarixiy davrga tegishli birbutunlikni tashkil qila boshladi.

O'zbek adabiyotida ham portret ancha rivojlanib bordi. Taniqli yozuvchi Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romanining dastlabki sahifasidayoq asar qahramoni bo'lgan Otabek obrazini shunday ta'riflaydi: "Og'ir tabiatlik, ulug' g'avdalik, ko'rkam va oq yuzlik, kelishgan, qora ko'zlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabz urgan bir yigit" [Qodiriy A., 1974; 7]. Muallifning portret tasvirida "ulug' gavdali", "kelishgan" degan e'tiroflaridan so'ng kitobxon ko'z o'ngida ijobiy asar qahramoni gavdalanadi. Xuddi shu asarda boshqa qahramonlar portreti tasvirlarida yozuvchi munosabatining yaqqol ifodasini ko'rish mumkin. ".....ikkinchisi: uzun bo'ylik, qora cho'tir yuzlik, chag'ir ko'zlik, chuvoq soqol, o'ttuz besh yoshlarda bo'lg'an ko'rimsiz bir kishi edi. Bu yigit yaxshig'ina davlatmand bo'lsa ham, lekin shuhrati nima uchundir boyligi bilan bo'lmay, "Homid xotinboz" deb shuhratlangan, kishilar Homid orqasidan so'zlashkanda uning otig'a taqilg'an laqabni qo'shib aytmasalar, yolg'iz "Homidboy" deyish ila uni tanita olmaydirlar" [Qodiriy A., 1974; 8]. Bu ta'rifdan so'ng ko'z o'ngimizda asardagi yana bir qahramon – salbiy xislatlarga ega Homid gavdalanadi.

Adabiyotshunoslik lug'atida portretga quyidagicha ta'rif berilgan: "Portret (fr. *portrait* – tasvirlamoq) – 1) personajning so'z vositasida tasvirlangan tashsqi ko'rinishi (qiyofasi, jussasi, kiyimi, yuz-ko'z ifodalari, tana holati va harakatlari, qiliqlari), o'quvchi tasavvurida jonlanadigan to'laqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biri" [Quronov D., 2010; 226]. Ko'rinib turibdiki, portret poetik vosita hisoblanib, adabiy asardagi obraz shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Portret orqali qahramonning tashqi ko'rinishi – qomati, yuz tuzilishi, kiyimi tasvirlanadi. Shuningdek, ba'zan xulq-atvoriga xos xususiyatlar qo'shiladi: imo-ishoralar, yuz ifodalari, yurish, xulq-atvor. Portret orqali muallif qahramonga shaxsiy munosabatini ko'rsatib o'tadi. Yuqorida keltirilgan lug'atda portretning statik va dinamik turlari haqida ma'lumot berilib, personajning tashqi qiyofasi detallashtirilib berilsa – statik, voqea va dialoglar davomida personajlarning qiyofasiga to'xtalsa – dinamik portret [Quronov D., 2010; 226] deb atalishi aytilgan. Ko'rinib turibdiki, portret badiiy ifoda vositasi hisoblanib, adabiy asardagi obraz yaralishida muhim ahamiyat kasb etadi. Portret orqali muallif qahramonga shaxsiy munosabatini ko'rsatib o'tadi.

Adabiyotda psixologizm rivojlanishi bilan "ichki portret" yoki "psixologik portret" deb ataluvchi yangi turdagi portretlar vujudga keldi. Tashqi va ichki portretlar birligining klassik namunasini M.Lermontovning "Zamonamiz qahramoni" romanida Pechorin obrazida uchratish mumkin. Bu kompozitsiyaning eng muhim tarkibiy qismi bo'lib, personaj ma'naviy hayotining tavsiflari uning xarakterini chuqur ifodalaydi.

Adabiyotshunoslikda, shuningdek, ekspozitsion portret qo'llanilib, u muallifning qahramon bilan kitobxonni birinchi tanishtiruvi jarayonidagi portretdir.

Amerikalik adiba Garriet Bicher-Stoun qalamiga mansub “Tom tog‘aning kulbasi” romanining dastlabki satrlari shu tarzda, ya’ni qahramonning portreti bilan boshlanadi: “Uning nomi Garriet. U quvnoq qiz edi, uni qo‘shiq aytgani ham, o‘yinga tushgani ham qo‘ymasdilar. U hech qachon bolalar bilan o‘ynamasdi. Unga ertak aytib, qiziq she‘rlar o‘qib berishmasdi. Uning bitta ham guldor ko‘ylagi yo‘q edi. Garriet vahtichog‘likni gunoh deb hisoblaydigan juda dindor oilada tug‘ilib o‘sdi” [Bicher-Stou G., 1960; 3]. Leytmotiv portret deb esa, voqea bayoni davomida qahramonning qaysidir xususiyatini qayta-qayta eslab o‘tishga aytiladi. Masalan, L.Tolstoy “Urush va tinchlik” romanida malika Mariyaning yorqin ko‘zlari haqida, Natashaning biroz katta og‘zi haqida, Helenning keng yelkalari haqida qayta-qayta to‘xtaladi. Ba‘zan kontrastning ta’sirini yoki aksincha, xususiyatlarning mos kelishini kuchaytirish uchun mualliflar “qo‘sh portret” tamoyiliga – egizak qahramonlarning parallel tasviriga murojaat qiladi. Umumun olganda portret muallif uslubi bilan ham bog‘liq bo‘lib, qahramonni tavsiflash shaklining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Shunday asarlar ham uchraydiki, ularda asosiy qahramonning portreti mutlaqo tasvirlanmaydi. Masalan, Cho‘lpon “Kecha va kunduz” romanida Zebi obrazining portretini chizmagan, balki uning siyratini xatti-harakatlari orqali tasvirlab bergan. Bu asarni o‘qiyotgan kitobxonning o‘ziga Zebini tasavvur qilish imkonini beradi [Quronov D., 2010; 226]. Shunday qilib, asardagi personajlar tashqi ko‘rinishining tasviri, bir tomondan, matnning ob’jekt xususiyatlarini, ikkinchi tomondan, uning subyektiv komponentini aniqlashtirish imkonini beradi. Shu bois, asardagi personajlar tashqi ko‘rinishining barcha tavsiflarini bir tizim sifatida ko‘rib chiqish zarurdir.

Qahramon psixologiyasini tasvirlashning muhim vositalaridan yana biri, bu – monolog. Badiiy asarda monolog qahramonning xarakteri, xis-tuyg‘ularini ochib berishga yordam beradi. “Monolog (yunon. monos + logos = bir so‘z) – asar qahramonining suhbatdoshiga, o‘ziga, ba‘zan kitobxon-tomoshabinlarga qarata aytgan gap-so‘zi, nutqi. Monolog qahramonning ruhiy kechinmalarini, fikr-mulohazalarini ifodalaydi, obrazning mohiyatini ochadi” [Boboev T., 2002; 173]. Monolog qadimdan dramatik asarlarda qahramon qalbini ezib kelgan iztiroblarini, oshkor aytolmagan dardlarini tomoshabinga yetkazishda yoki aksincha, quvonchlarini, ich-ichidagi quvonchini boshqalarga ko‘rsatish asnosida qo‘llanilb kelingan. Masalan, Yevripidning “Medeya” tragediyasida Medeya tomonidan juda ko‘p monologlar aytilgan. Ulardan biri:

O, dahshat, dahshat!
O, roziman falak charxi
Majaqlasa bosh suyagimni!...
Menga endi yashash chikora?
Sho‘rim qursin! Hayhot! Ey, sen, o‘lim,
Hayot rishtalarin uzib yubor –
Ko‘zim yo‘q ko‘rarga tiriklarni [Evripid, 1985; 15].

Ushbu monologda xiyonatdan azob chekayotgan Medeyaning ohlari bayon berilgan. Monologlar ichki va sirtqi monologlardan iborat bo‘lib, ko‘pincha,

yoʻzuvchilar ichki monologdan foydalanishga harakat qiladilar. Bu turdagi monologda qahramon oʻz-oʻzi bilan koʻnglida (ruhan) suhbatlashib, yashirin fikrlarini aytadi. Qahramonning qalb kechinmalari kitobxonga oshkor boʻladi. Ruhiy holatidan xabardor boʻlgan kitobxon, oʻz qahramonini yanada yaqindan taniy boshlaydi. Unga achinadi, quvonchiga sherik boʻladi. Shu sababli koʻp kitobxonlar qahramonlarning monologlaridan soʻng koʻzlariga yosh olishlari, ular bilan birga qalb kechinmalarini his qilishlari mumkin. Monologlar gʻoyaviy mazmuniga koʻra: monolog-hikoya, monolog-xotira, monolog-muxokama, monolog-orzu, monolog-iqrorlik, monolog-baho, oʻz-oʻzini tavsiflash monologi kabi turlarga boʻlinadi. Personajlarning qalb kechinmalari bilan yozgan maktublari ham monologdir. Yoʻzuvchi oʻz qahramoni hamda voqea yoʻnalishiga qarab monologning xohlagan turlaridan foydalanishi mumkin. Bu jarayon albatta ijodkorning mahorati va uslubiga bevosita bogʻliqdir. Bu monologlarning barchasi badiiy asar qahramonining psixologiyasini – ruhiy olamini ochishga xizmat qiladi.

Qahramon ruhiyatini ochib beruvchi yana bir poetik vosita, bu – badiiy asardagi dialoglardir. Epik asar matni rivoya, tavsif va dialogdan tarkib topadi, shu bois ular epik nutqning kompozitsion shakllari sifatida eʼtirof etiladi [Quronov D., 2018; 183]. Ikki kishining suhbatlari orqali voqea tafsilotlarini, shuningdek, qahramonlarga tegishli maʼlumotlarni kitobxon qisqa va tez anglab yetishi mumkin.

Adabiy tushuncha sifatida dialog nafaqat dunyo bilan koʻpfunksiyali aloqadorlikda tilning tizimli birligi, balki adabiy asar muallifining ijodiy ruhi bilan toʻldirilgan majoziy “material” hamdir. Shu bois u adabiy asar tashqi va ichki tuzilishining koʻp qirrali ajralmas qismi hisoblanadi [Kan S.K., 2004].

Dialog – (yunoncha dialogos – “suhbat, suhbat”; lit. “nutq orqali”) – ikki yoki undan ortiq shaxslar oʻrtasidagi muloqot (odatda, lingvistik) jarayonini anglatadi [Bezrukov A.N., 2009; 40].

– Sen ispanchani qayoqdan bilasan? — soʻradi Santyago.

– Bu yerda uni qariyb hamma biladi. Ispaniya ikki soatlik yoʻl.

– Kel, oʻtir, men seni biror narsa bilan mehmon qilay. Oʻzingga ham, menga ham vino buyur. Choyga uncha tobim yoʻq.

– Bu mamlakatda vino ichishmaydi, — javob qildi u. — Vino taʼqiqlanadi [Paulo K., 2019; 16].

Ushbu dialog orqali voqea qayerda kechayotgani, mamlakat urf-odatlaridan bahramand boʻlishimiz mumkin. Dialoglar oʻquvchiga koʻp maʼlumotlardan habardor qilish bilan birga asar qahramonlarining ruhiy kechinmalarini ham tasvirlaydi. Muallif nutqida berilmagan maʼlumotlar, dialoglarda sekin-asta oʻz aksini topadi. Kitobxon muallif nutqini oʻqimasdan dialoglarni oʻqisa ham asar mazmu va kompozitsiyasi haqida ancha maʼlumot olishi mumkin. Demak, dialogning badiiy asardagi roli ancha muhimdir.

Inson ruhiyatini tasvirlovchi poetik vositalarning yana biri, bu – peyzajdir. “Adabiyotshunoslik lugʻati”da peyzaj taʼrifi xususida shunday deyilgan: “PEYZAJ (fr. paysage – joy, yurt) – adabiy asarda yaratiluvchi badiiy voqelikning muhim komponenti, voqealar kechuvchi ochiq makon (yopik makon – interyer) tasviri”

[Quronov D., 2010; 220]. Yozuvchi o'zining g'oyaviy niyatini faqat qahramon xatti-harakati orqali emas, balki ularni go'zal tabiat tasviri orqali ham amalga oshiradi. U qo'shiqlar matnida mustaqil ifodaga ega bo'lishi mumkin. Tabiatda sodir bo'layotgan voqea va qahramonlarning his-tuyg'ulari hamda kayfiyatini ifodalashga xizmat qiladi.

Adabiyot tarixida peyzajning qo'llanilish xususiyatylari o'zgarib bordi. Folklor matnlarida tabiat tasviri personajlar bilan teng harakat qilgan. Ilk antik va o'rta asrlarda peyzaj harakat foni sifatida tasvirlangan. XVIII – XX asrlar adabiyotida sentimentalistlar matnlaridan boshlab peyzaj emotsional-psixologik ahamiyatga ega bo'la boshladi. Adabiyotshunoslik lug'atida peyzajning alohida xususiyatlaridan biri, bu – polifunksionallikdir ya'ni qahramon ruhiyatini ochish vositasi sifatida keng qo'llanilishiga e'tibor qaratiladi. Joy yoki tabiat tasviri qahramon ruhiyati bilan uyg'unlik kasb etishi mumkin ("O'tkan kunlar"da haydalgan Otabek ko'zi bilan ko'rilgan tol) [Quronov D., 2010; 220]. Realistik adabiyotda esa peyzaj inson va olam, inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar mohiyatini ifodalaydi, qahramonni ijtimoiy-psixologik sifatlash vazifasini bajaradi. Keyinalik realistik matnlarda tabiatni urbanistik (shahar) tasvirlash turi ham paydo bo'ldi. Buni Gogolning "O'lik jonlar", "Peterburg ertaklari", F.Dostoyevskiyning "Jinoyat va jazo", "Aka-uka Karamazovlar" romanlarida hamda N.Nekrasov lirikasida uchratish mumkin. Nihoyat, modernizm adabiyotida peyzaj tartibsiz, absurd dunyoning bir qismi (A.Kamyu romanlarida) yoki insonlarning bir-biriga zid munosabatlarida tartibning yagona uyg'un shakli sifatida uchraydi (V.Nabokov "Boshqa qirg'oqlar", "Fialtadagi bahor" asarlarida).

Demak, peyzaj, badiiy asarda o'ziga xos prizma bo'lib xizmat qiladi. Peyzaj orqali qahramonning ruhiy holati yanada keskin va ravshvn ochib beriladi.

Peyzaj bir tomondan, qahramon psixik holatini ifodalasa, ikkinchi tomondan, tashqi dunyo tasvirining obyektivligini saqlaydi. Peyzaj xronotop bilan bog'liqdir, ammo ba'zi hollarda qahramonning "ruhiyat ko'zgusi"ga aylanganligi bois juda kuchli o'rinni egallaydi. Qahramon ruhiyatini taftish etish uchun yana bir poetik vosita, bu tush hisoblanadi. Tush badiiy asardagi ruhiy tahlil vositasi va u voqealar rivoji, mohiyati va yechimini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi qahramon tushi orqali boshidan kechirgan voqealarni tasvirlab, o'tgan zamonga qaytishi, orzulari, maqsadlarini bashorat qilib, kelasi zamonni ifodalashi mumkin. Tadqiqotchi Sh.Istamova bu haqda shunday yozadi: "Tushlar badiiy asarda ko'pincha qahramonning ruhiyatini ochishda qo'l keladi. Obrazlar xarakterini sifatlashga, voqealar rivojida dramatismni chuqurlashtirishga, asar kompozitsion qurilishini ixcham shakllantirishga, syujet elementlari orasida bog'lanishni vujudga keltirishga, muallif – qahramon – kitobxon aloqasini ta'minlashga xizmat qiladi" [Istamova Sh., 2017; 18]. Demak, yozuvchi qahramon tushi orqali bo'lib o'tgan voqealarga munosabatini, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan hodisalar va ularning oqibatini bashorat qilishi mumkin.

Kompozitsiya elementi sifatida tush quyidagi funksiyalarga ega: voqea va hodisalarni sharhlash va baholash; personajning psixologik xarakteristikasi; asarning g'oyaviy mazmunini anglash; "o'zga bashoratli ovoz" – ilohiy olam bilan aloqa qilish [Chyomskaya Ye., 2013]. Qahramon ruhiyatini ochib berishda tushning ham o'rni

muhim.

Tushlarning barchasida umumiylik mavjud. Ularda ramzlar, badiiy tafsilotlar, ranglar va tovushlar asosiy o‘rin tutadi. Tushdagi aynan shu xususiyatlarning roli juda muhim, zero ular ziyrak o‘quvchiga ko‘p voqealardan xabar beradi. Badiiy asarda qahramonlarning gallyutsinatsiyasi bilan bog‘liq tasvirlar muallifning qahramon psixologiyasini, ongini, yoki ongsizligini chuqurroq ochib beradigan badiiy uslublardan biridir. Shuningdek, asardagi voqealarga guvoh bo‘luvchi, qahramonlar o‘y-kechinmalari, quvonchlarini va butun asar mazmunini kitobxonga yetkazib beruvchi hikoyachining o‘rni badiiy asarda katta ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchi M.Boboxonovning fikricha, “Har qanday badiiy asarda hikoya kim tomonidan olib borilayotgan bo‘lsa, shunga xos dunyoni anglash, mushohada qilish sulukati ham o‘z aksini topadi” [Boboxonov M., 2012; 31]. Adabiyotshunoslikda bu hodisa roviy obrazi deb nomlangan va asarning o‘ziga xos ifodasi va hikoya tarzi roviy monologlarida ko‘rinadi. Muallifning qisqa yoki to‘liq bayonidan asar mazmuniga xos bo‘lgan ko‘plab ma‘lumotlarni olish mumkin. Badiiy asarda personajlar yo birinchi yoki ikkinchi shaxs nuqtai nazardan turib bayon qiladi.

XIX asr romanlarida muallif roviy emas, ko‘proq qahramonlar nutqini tasvirlovchi shaxs sifatida namoyon bo‘lganligi uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirma gapning roli kuchayib, o‘zlashtirma nutqning ahamiyati sustlashdi. Biroq muallifning hikoya qilish faolligi kamaymasdan, aksincha, kuchaydi [Barkovskaya N.V., 2004]. Rovi y obrazi dastlab bayon qilish usullarida namoyon bo‘ladi. Asarda ikkita muallifni, ya‘ni asar yaratuvchisi – biografik muallifni hamda hikoyachi roviyni farqlab olishimiz zarur. Muallif obrazi ko‘proq muallifning shaxsiyati ijod mavzusiga aylangan avtobiografik asarlarda namoyon bo‘ladi. Ayrin asarlarda esa muallifning o‘zi asardagi voqealar tafsilotlarini hikoya qilib beradi. Bu holatni mashhur ingliz yozuvchisi Sharlotta Brontening “Jeyn Eyr” asarida kuzatishimiz mumkin: “Men bu oilaviy davrada qatnasha olmasdim; Rid xonimning aytishicha, garchi o‘zi bundan juda afsus qilsa-da, biroq men vaqtincha bolalaridan ajratib qo‘yishga majbur ekan” [Bronte Sh., 1897; 8].

Birinchi shaxs tomonidan hikoya qilib beriladigan ko‘p asarlar xotiralardan iboratdir. Bunday asarlarda ikkita zamon: voqea sodir bo‘lgan vaqt va o‘sha voqea eslanayotgan vaqti, “hozir” va “avval” mavjuddir. Eslab hikoya qilishda ko‘p ishlatiladigan “yodimda”, “hech esimdan chiqmaydi”, “xotiramga muhrlangan” kabi juda ko‘p so‘z va jumlar ishlatiladi. Bunday paytda badiiy makon va zamonning uyg‘unlashib ketishi ham hikoya kompozitsiyasini murakkablashtiradi. Ba’zida qahramon o‘z nutqida “begona nutq” deb atalmish vositadan, ya‘ni har qanday ijtimoiy yoki madaniy guruhning nutq uslubiga xos bo‘lgan nutq burilishlari, frazeologik birliklardan foydalanadi. Bunday “nutq niqobi” qahramonning ichki bo‘shlig‘ini yashirishi mumkin.

Adabiyotshunos Abdug‘afur Rasulov rovi y obrazi haqidagi kuzatishlarini quyidagicha ifodalaydi: “Rovi y – yozuvchining ishonchli vakili. Rovi y – adibning badiiy asarlaridagi ko‘rar ko‘zi, eshitar qulog‘i, so‘zlaydigan tili, ushlaydigan qo‘li. Rovi y – rakurs nuqtasi, baholovchi markaz. Rovi y – asardagi ruh ifodachisi, ayni

vaqtda roviy yozuvchining o'zi emas. Roviý – yozuvchi inon-ixtiyorini bajaruvchi, san'atkorlik uquvini ifoda etuvchi vosita. Nihoyat, roviý – so'zshunos, har bir so'z holati, imkoniyati, evrilishi, tovlanishlarini o'ta nozik his qiladi. Demak, roviy obrazining vazifasi kitobxonni badiiy olamga, voqealar dunyosiga olib kirish va barcha hodisalarni jonli ifoda etishdan iboratdir.

XULOSA

Taqdim etilgan fikrlar va ularni asoslash uchun keltirilgan misollar shuni ko'rsatadiki, adabiyotshunoslikda ruhiyat tasviri bilan bog'liq masalalarni tadqiq etish badiiy asar qahramonlari ruhiy ahvoli va unga oid masalarni o'rganish, umuman, inson psixologiyasini ochib berish, shaxsni turli falsafiy mezonlar asosida tahlil qilish vosita va usullarini teranroq angshga yordam beradi.

Badiiy asarda har bir personajning o'z ichki dunyosi mavjud. Kechayotgan voqealarga nisbatan asar qahramonlarining munosabati berilsa va ularning ruhiy kechinmalarini muallif tasvirlashga muvaffaq bo'lsa, bu kitobxonda katta taassurot qolishiga sabab bo'ladi. Badiiy asarda muallif o'z qahramoni psixologiyasini turli poetik vositalar yordamida ochib beradi va ularning o'ndan ortiq turlari e'tirof etilgan.

Psixologik tasvir juda murakkab, u har bir detal va vosita orqali o'quvchi ko'z oldida ko'plab holat va vaziyatlarni gavdalandirishi kerak. Ba'zan qahramonning chekkan azob-uqubatlari, qo'rquv va iztiroblari tashqi portretida aks ettirilsa, ayrim hollarda tashqi eskizlardan tashqari qahramon ichki dunyosi, o'y-kechinmalarida hayotining muammoli va quvonchli damlari tasvirlanishi mumkin. Muallif badiiy obraz orqali qahramon ruhiyatini tasvirlar ekan, inson badiiyatda xarakter sifatida, alohida fe'l-atvorga ega bo'lgan tip sifatida namoyon bo'ladi. O'sha tasvirlarning o'quvchi ongiga yetib borishi va qayta jonlanishi asarning qimmatini belgilashda muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alimuxamedov, A. (1947). Abdulla Qahhor hikoyalarida psixologik tasvir. *Sharq yulduzi*, 2-3, 115-137.
2. Andreev, A.N. (2003). *Celostnyj analiz literaturnogo proizvedeniya*. Minsk: Nauchno-metodicheskij centr Elektronnaya kniga BGU.
3. Barkovskaya, N.V. (2004). Tipy povestvovaniya i ih analiz. *Filologicheskij klass*, 1(11), 16-25.
4. Bezrukov, A.N. (2009). *Vvedenie v literaturovedenie*. Birk: Birkaya gosudarstvennaya social'no-pedagogicheskaya akademiya.
5. Bicher-Stou, G. (1960). *Tom tog'aning kulbasi*. Toshkent: "Yosh gvardiya" nashriyoti.
6. Boboev, T. (2002). *Adabiyotshunoslik asoslari*. Toshkent: O'zbekiston.
7. Boboxonov, M. (2012). Hozirgi o'zbek qissachiligida psixologizm. Fil. fan. nomz. avtoref. Toshkent.
8. Bronte, Sh. (1897). *Jane Eyre*. London: Service & Paton.
9. Collingwood, R.G. (1938) *The principles of art*. New York: Oxford University Press.
10. Fitrat, A. (1995). Adabiyot qoidalari. H.Boltaboev (Tah.), *Adabiyot muallimlari ham adabiyot havaslilari uchun*. Toshkent: O'qituvchi.
11. Ginzburg, L.Ya. (1971). *O psixologicheskoy proze*. Moskva.
12. Is'hoqov, Y. (1983). *Navoiy poetikasi*. Toshkent: Fan.

13. Istamova, Sh. (2017). Badiiy asarda tushning poetik-kompozitsion vazifalari. *Filol. fan. fal. dok. dis. avtoref.* Samarqand.
14. Kan, S.K. (2004). Dialog v epicheskikh i dramaticheskikh proizvedeniyah M.A. Bulgakova. *Dis. kand. filol. nauk.* Moskva.
15. Ko'chimov, U. (2021). Fantastik asarlarda badiiy psixologizm konsepsiyasi (Rey Bredberi va Hojiakbar Shayxov ijodi misolida). *Filol. fan. fal. dok. dis.* Toshkent.
16. Matyoqubov, S. (2006). Badiiy psixologizm qirralari. *O'zbek tili va adabiyoti*, 4, 72-74. Toshkent.
17. Paulo, K. (2019). *Alkimyogar*. Toshkent: "Yangi asr avlodi" nashriyoti.
18. Qobilova, N. (2020). Jek London va Abdulla Qahhor ijodida badiiy psixologizm. *Fil. fan. fal. dok. dis. avtoref.* Buxoro.
19. Qodiriy, A. (1974). *O'tkan kunlar*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot uyi.
20. Quronov, D., Mamajonov, Z., Sheralieva, M. (2013). *Adabiyotshunoslik lug'ati*. Toshkent: Akademnashr.
21. Sarimsoqov, B. (1976). *Dostonlarda psixologik tasvirning xarakteri haqida ba'zi mulohazalar*. Toshkent.
22. Shermuhamedova, S. (2020). "Humoyun va Akbar" romanida ruhiyat tahlili. *Academic Research in Educational Sciences*, 1(4), 504-512.
23. Skaftymov, A.P. (1972). *Nravstvennye iskaniya russkikh pisatelej*. Moskva: Hudozhestvennaya literatura.
24. Strahov, I.V. (1973). *Psixologicheskij analiz v literaturnom tvorchestve*. Saratov: Izdatel'stvo Saratovskogo pedagogicheskogo instituta.
25. Turdimov, Sh. (2012). *Etnos va epos*. Toshkent: O'zbekiston.
26. Umurov, H. (1983). *Badiiy psixologizm va hozirgi o'zbek romanchiligi*. Toshkent: Fan.
27. Yesin, A.B. (2011). *Psixologizm russkoy klassicheskoy literaturi*. Moskva: Flinta.
28. Yevripid. (1985). *Medeya*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot uyi.
29. Chyomskaya, Ye. (2013). *Son kak literaturnyj priem*. Kolpino.
30. Chernishevskiy, N.G. (1947). *Sobranie sochineniy v pyati tomax*. Moskva: Pravda.

REFERENCES

1. Alimukhamedov, A. (1947). Psychological image in the stories of Abdulla Qahhor. *Eastern Star*, 2-3, 115-137.
2. Andreev, A.N. (2003). *Holistic analysis of a literary work*. Minsk: Scientific and Methodological Center E-book BSU.
3. Barkovskaya, N.V. (2004). Types of narration and their analysis. *Philological Class*, 1(11), 16-25.
4. Beecher-Stow, H. (1960). *Uncle Tom's cabin*. Tashkent: "Young Guard" Publishing House.
5. Bobokhanov, M. (2012). Psychologism in contemporary Uzbek short stories. *Abs. cand. philol. scien. diss.* Tashkent.
6. Bezrukov, A.N. (2009). *Introduction to literary studies*. Birsik: Birsik State Social and Pedagogical Academy.
7. Boboev, T. (2002). *Basics of literary studies*. Tashkent: Uzbekistan.
8. Bronte, Sh. (1897). *Jane Eyre*. London: Service & Paton.
9. Chenskaya, E. (2013). *The dream as a literary device*. Kolpino.
10. Chernyshevsky, N.G. (1947). *Collected works in five volumes*. Moscow: Truth.
11. Collingwood, R.G. (1938) *The principles of art*. New York: Oxford University Press.
12. Euripides. (1985). *Medea*. Tashkent: Publishing House Named after Gafur Gulam.
13. Fitrat, A. (1995). Literary rules. H. Boltaboev (Ed.), *Literature teachers are also for literature lovers*. Tashkent: Teacher.
14. Ginzburg, L.Y. (1971). *Psychological prose*. Moscow.
15. Is'hakov, Y. (1983). *Navoi's poetics*. Tashkent: Science.

16. Istamova, Sh. (2017). Poetic-compositional functions of a dream in a work of art. *Abs. PhD thes. in philol. scien.* Samarkand.
17. Kabilova, N. (2020). Artistic psychology in the works of Jack London and Abdullah Qahhor. *Abs. Phd thes. in phil. scien.* Bukhara.
18. Kan, S.K. (2004). Dialogue in the epic and dramatic works of M.A. Bulgakov. *Diss. cand. philol. scien.* Moscow.
19. Kuchimov, U. (2021). The concept of artistic psychologism in fantastic works (as an example of the works of Ray Bradbury and Hojiakbar Shaikhov). *PhD thes. in phil. scien.* Tashkent.
20. Kuronov, D., Mamajonov, Z., Sheralieva, M. (2013). *Literary dictionary*. Tashkent: Academic Publishing House.
21. Matyokubov, S. (2006). Aspects of artistic psychology. *Uzbek language and literature*, 4, 72-74. Tashkent.
22. Paulo, K. (2019). *Alchemist*. Tashkent: New Age Generation Publishing House.
23. Qadiri, A. (1974). *Days gone by*. Tashkent: Publishing House Named after Gafur Gulam.
24. Sarimsokov, B. (1976). *Some comments about the character of the psychological image in the epics*. Tashkent.
25. Shermuhamedova, S. (2020). Analysis of psychology in the novel "Humayun and Akbar". *Academic Research in Educational Sciences*, 1(4), 504-512.
26. Skaftymov, A.P. (1972). *Moral quests of Russian writers*. Moscow: Fiction.
27. Strakhov, I.V. (1973). *Psychological analysis in literary creativity*. Saratov: Publishing House of the Saratov Pedagogical Institute.
28. Turdimov, Sh. (2012). *Ethnos and epos*. Tashkent: Uzbekistan
29. Umurov, H. (1983). *Artistic psychologism and contemporary Uzbek novels*. Tashkent: Science.
30. Yesin, A.B. (2011). *Psychologism Russian classic literature*. Moscow: Flint.